

**“HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA
JISMONIY TARBIYA VA SPORT
MASHG'ULOTLARINI TASHKIL
QILISHNING ISTIQBOLLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**2022 yil 29 aprel
Buxoro**

2-SHO'BA: JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA AHOLINI OMMAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING INNOVATSION SPORT KLASTERINI TASHKIL QILISH;

..... 140

Bobomurodov Abdurafik Egamurodovich. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILAR NAZARIY BILIMINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... 140

Ibodov Azizbek Inoyat o'g'li, Boltaev Sunnat Baxtiyор ўғли. ТАЛАБАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ ЗАРУРИЯТИ. 142

Bekmurzaev Abdikarim Kulmurzaevich, Shilmanov Raxat Perdebaevich, Kalmuratov Islambek Polatovich. JISMONIY MADANIYAT SHAKLLANISHIDA SHAXSIY SOG'LIQNI SAQLASHNING TA'RKIBIY QISMLARI 145

Abdiyev Sherzod Abdurahmonovich, Omurullayeva Maftuna Xabibulla qizi, KO'P YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHIDA YENGIL ATLETIKA TURLARIGA O'QUVCHI YOSHLARNI SARALASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI 146

Sh.O' Atamurodov, D.X.Abdullayev, M.Xosilmurodov. O'QUVCHILARGA MILLIY HARAKATLI O'YINLAR ORQALI MILLIY VA UMUMINSONIY FAZILATLARNI SINGDIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI..... 148

Soataliyev Sardorbek Minnosibjon o'g'li. MAKTAB O'QUVCHILARINI SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY TOMONLARI 150

Ibragimov Alisher Karomatovich, Saidmurodova Gavhar Navrōzovna. XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANISHDA SOG'LOM ONA VA OILANING O'RNI 152

Ibragimov Alisher Karomatovich, Jabborov Islomjon Bobir o'g'li. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYA FANINING OILADAGI O'RNI VA AHAMIYATI 155

Aslonova Malohat Akramovna. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI BO'YICHA AHOLI O'RTASIDA OMMAVIY SPORT ISHLARINI TASHKIL QILISH..... 158

TOXTASINOV DILSHODBEK ERKINJONOVICH, JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNI YANADA RIVOJLANTIRISHDA "SPORT TARG'IBOTCHISINING ROLI 160

M.A.Xasanova. UMUMTA'LIM MAKTABLARDA JISMONIY TARBIYA FANIDA TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH 162

Talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati

. 10.53885/edinres.2022.23.46.042

BuxDu "Jismoniy madaniyat fakulteti" Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedira o'qtuvchisi **Ibodov Azizbek Inoyat o'g'li Boltaev Sunnat Baxtiyор o'g'li jismoniy madaniyat fakulteti 2 bosqich talabasi**

Аннотатсия. В статье анализируется современное состояние развития коммуникативной компетентности будущих учителей физической культуры, проблемы, недостатки в этой связи, пути их преодоления. Также были исследованы индивидуальные, групповые и коллективные, социальные формы общения, их специфические особенности в профессиональной педагогической культуре будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова: система образования, содержание образования, педагогика, физическое воспитание, физическое совершенство, физическая культура, студенты, профессионально-педагогическая культура, коммуникативная компетентность, культура речи.

Talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning mavjud holati, bu boradagi muammolar, kamchiliklar, ularni barataf etish yo'llari, tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak

jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy pedagogik madaniyatida muloqotning shaxslararo, guruhlararo va jamoaviy, ijtimoiy shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim mazmuni, pedagogika, jismoniy tarbiya, jismoniy barkamollik, jismoniy madaniyat, talabalar, kasbiy pedagogik madaniyat, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati. Annotation The article analyzes the current state of development of the communicative competence of future physical culture teachers, problems, shortcomings, and ways to overcome them. Also, the interpersonal, intergroup and collective, social forms of communication and their peculiarities in the professional pedagogical culture of future physical culture teachers. Key words: education system, content of education, pedagogy, physical education, physical development, physical culture, students, professional pedagogical culture, communicative competence, speech culture.

Dolzarliligi. Jahonda yoshlarning ma'naviy, shu bilan birga jismoniy komilligini ta'minlash, ularning asrlar davomida sinovdan o'tgan ijtimoiy-pedagogik hodisa, jismoniy mashqlar, ya'ni sport vositasida sog'lom hayotini, jismoniy madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki sport - millati, irqi, dinidan qat'iy nazar barchaga sog'lom hayot tarzini shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratib beradigan omillardan biridir. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda integrallashuv, xalqaro malaka talablariga mos kadrlar tayyorlash mazmuniga ta'limda ularning jismoniy madaniyatini ham shakllantirish, muassasa o'quv jarayonini takomillashtirishda amaliyotni shakllantirish va bu sohada ilmiy metodik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'limda o'quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mexanizmlar xususiyatlarini ko'rsatuvchi metodlar, ko'rsatkichlarni muvozanatda saqlash tizimi, yalpi sifat menejmenti, sifat kafolati, samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari, uzluksiz ta'lim sifati yaxshilanishi kabi sifatni ta'minlashga va ilg'or tajribalarni o'rganishga yo'naltirilgan metodlaridan foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar sharoitida asosiy vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligi darajasi, jismoniy madaniyatini oshirishdan iborat. Ta'limning yangi modeli o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, ularning jismoniy madaniyatini ham shakllantirish, aniqrog'i, birinchi navbatda, yaxlit jismoninon sog'lom shaxsni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu bois Prezidentimiz Sh. Mirziyoev bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz"[1]. Dolzarb masala sifatida, bugun jismoniy tarbiya ta'lim tizimini takomillashtirishning yo'nalishlari aniq belgilab olinganiga qaramay, keyingi yillarda jismoniy va ruhiy salomatligi darajasi past bo'lgan o'smirlar va o'quvchi yoshlarning soni oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Shu bois, o'quvchilardagi jismoniy va ruhiy kamchiliklarni

143

bartaraf etish jismoniy madaniyat o'qituvchilarning kommunikativ rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi. Talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning zaruriyatini yuksaltirishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik asoslari, uni shakllantirishning ilg'or pedagogik metod, shakl va vositalari, diagnostik va korreksion xususiyatlarini tahlillashdan iborat. Muhokama. Mamlakatimiz pedagogika fani va ta'lim tizimi oldiga strategik jihatdan muhim vazifa qo'yilgan bo'lib, u ta'limning maktab o'quvchilari va talabalar salomatligini izdan chiqarish emas, balki saqlash hamda rivojlantirishga yordam berishi uchun barcha shartsharoitlarni yaratishdan iborat. Bunday holatda, o'quvchilarda ularning hayotdagi orzuistaklarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zamin hozirlaydigan salomatlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy hamda pedagogik ahamiyati nihoyatda ortmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining yoshlarga doir davlat siyosatini takomillashtirish bandida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega shaxslarni tarbiyalash ko'zda tutilgan. 2018 yil 5 mart kuni qabul qilingan

“Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2018 yil 20 sentabrda Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda belgilangan vazifalar, 2019 yil 13 fevralda tasdiqlangan “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019 yilning 19 martda taklif etilgan yoshlarga oid 5 ta muhim tashabbus va boshqa muammoga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bevosita aholi, xususan yoshlarning jismoniy barkamolligi va madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Talabalar aholining boshqa ijtimoiy guruhlariga nisbatan atrof muhitning salbiy omillari ta‘siriga ko‘proq beriluvchan, turli xil kasalliklardan aziyat chekuvchi, alohida tavsifga ega guruh hisoblanadi. Shuningdek, ular turli darajada jismoniy tayyorgarlikka egaligi bilan tavsiflanadi. Talabalar miqdoriy jihatdan turli xil darajada jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishga ega hisoblanadi. Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari guvohlik berishicha, so‘nggi yillarda turli xil darajada jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarning son miqdori ortishi qayd qilinadi. Bu ko‘rinishdagi tendensiya O‘zbekistonning ko‘plab Oliy ta‘lim muassasalari uchun xos xususiyatdir. Ko‘pgina talabalar standart o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan yuklamalarni bajarishga to‘liq holatda tayyor hisoblanmaydi. Bu ko‘rinishdagi talabalar tomonidan mashg‘ulotlar rejimlari (berilgan yosh guruhlar uchun fiziologik jihatdan asoslangan standartlarga muvofiq) doirasida tuzib chiqilgan o‘quv mashg‘ulotlari dasturlarini bajarish qiyin amalga oshiriladi. Bu holat sezilarli sondagi talabalarning jismoniy tayyorgarligi va ular tomonidan bajariluvchi normativ testlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan bog‘liq hisoblanadi. Ko‘pgina talabalarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga nisbatan zaruriy motivatsiya mavjud emasligi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Bunday talabalarda ko‘pgina holatlarda amaliy mashg‘ulotlarda nafaol xolatda ishtirok etish, elementar mashqlarni bajarish holatida bo‘lmaslik, jismoniy yuklamalardan qochish, shuningdek organizmning barcha tizimlarini optimal darajada funktsiya bajarishi uchun talab qilinuvchi natijaga erishishda qat‘iylik namoyon bo‘lmasligi kuzatiladi. Bunday talabalarning jismoniy faoliyatini faollashtirish muhim masala sifatida qolmoqda. Bu talabalarni o‘qitish jarayoni uslubiyati va uni tashkil qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu xolat turli xil darajada jismoniy jihatdan rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalarga harakatlarga oid holatlarni o‘rgatishda yangi uslubiyatni ishlab chiqish talab qilinishiga olib keladi. Jismoniy madaniyat ta‘limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash yo‘lidagi ortib boruvchi faolligini taklif etadigan va rag‘batlantiradigan o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini olib borishda ta‘lim jarayoni texnologiyasini boyitadigan ilmiy – uslubiy ishlanmalar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

144

O‘qitishning an‘anaviy usullari endilikda talabalarni zamonaviy o‘qitish usullari bilan qurollantirish uchun talab qilinayotgan bilim, malaka va ko‘nikmalar to‘plami bilan ta‘minlay olmay qoldilar. Shu munosabat bilan, ta‘limni isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qitishning yangi usul va vositalarini ishlab hamda ta‘lim jarayoniga keng ko‘lamda qo‘llash lozim. O‘quv jarayoniga ta‘limning yangi faol shakllarini kiritish, uni takomillashtirishning asosiy zaminlaridan biridir. Zamonaviy o‘qitish usullarni ishlab chiqish hozirgi paytda pedagog kadrlarni tayyorlashning, takomillashtirishning va malakasini oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning muloqot madaniyati talablariga, o‘quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to‘g‘ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffofligini ifodalay olishi, xohish-istaklarini bildirishi, muloqot-ning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me‘yorlaridan to‘g‘ri foydalanishi, muloqotda-anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlantirishi kabilarni kiritish mumkin. Pedagogik muloqotning muhim jihati o‘quv-tarbiya jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkoniyatini yaratishga

xizmat qila olishidadir[3]”. Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda o‘ta muhim bo‘lgan madaniy-kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, ta‘lim oluvchilarning e‘tiqodi, ularga ta‘sir o‘tkazish; motivatsiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv); suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo o‘zaro ta‘sir; pedagogik taktni egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanishida o‘z aksini topadi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining pedagogik kasbiy muloqot madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi: – o‘zining jismoniy sifatlari va qobiliyatlarini eng maqbul darajasigacha rivojlantirishda; – inson jismining go‘zalligi, sog‘ligiga e‘tiborli bo‘lishida (jismoniy tarbiya bilan faol shug‘ullanish tufayli); – estetik hodisalar kabi jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari muayyan shakllarining idrok etilishida; sportda estetika oliy go‘zallik qimmatiga ega bo‘lib, unda ushbu sport hodisasi “o‘z muayyan hissiy yaxlitligida shaxs qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, uning erkinligi, individualligi chegaralarining kengayishiga yordam beradi” hamda uning yashirin intellektual va ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga imkoniyat yaratadi. Xulosa. “Pedagogik muloqotning kommunikativ komponenti dialog ishtirokchilarining mavqelari va vazifalarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ta‘limning dastlabki bosqichlarida o‘quvchilarda o‘zaro muloqotga kirishish, o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan munosabat o‘rnatishga oid bilim va tajribalar yetarli bo‘lmaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi tarixiy tajribaning tashuvchisi mavqeiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda o‘qituvchilarning o‘quvchilarga axborotlarni taqdim etishga oid tajribasini boyitish zaruriyati mavjud. Buning uchun o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot o‘rnatishga oid bilimlari va tajribalarini faollashtirish talab qilinmoqda. Pedagogik muloqot turli shakllarga ega. Bu ta‘lim jarayonida pedagogning tutgan mavqei, uning shaxsiy sifatlari, bilim darajasiga bevosita bog‘liq. Pedagogika hamda psixologiyaga oid manbalarda pedagogik muloqot o‘qituvchining faoliyat uslubi bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida pedagogik uslubning bir qancha tasniflari mavjud. Pedagogik munosabat aksariyat manbalarda pedagogik muloqot tarzida talqin etiladi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik madaniyatida muloqotning shaxslararo, guruhlararo va jamoaviy ijtimoiy shakllariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. 1. Shaxslararo – idrok qilish, bilish, tushunish, empatiya asosida suhbatdoshlarning bir-birini baholashi va tavsiflashi. 2. Guruhlararo – ijtimoiy guruhlar orasidagi muloqot. Guruhlararo idrok qilishning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda muloqot sub‘ektlari va ob‘ektlari, guruhlarning o‘zaro munosabati hamda birgalikdagi guruhlararo faoliyat turi va mazmuni inobatga olinadi. Adabiyotlar: 1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –B. 36. 2.O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son qarori. «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 6 iyundagi 111 (6805)-soni. 3. Pedagogika ensiklopediya, III jild. Mas‘ul muharrirlar: R.Safarova, R.Jo‘raev. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, - Toshkent, 2017. B-91-92.